

IMKONIYATI CHEKLANGAN (AQLAN ZAIF) BOLALARNING IJTIMOII MOSLASHUVIDA MUSIQA TERAPIYASINING TA'SIRI VA XUSUSIYATLARI

Ikromova Farangiz Yigitali qizi

Ilmiy izlanuvchi feya.01.m@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida musiqa terapiyasining nazariy ahamiyati, davolovchi xususiyatlari haqida atroflicha ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga imkoniyati cheklangan bolalarning hayotga adaptatsiya jarayonida musiqa terapiyasining ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'z: terpiya, autism, logopad, intellektual, interaktiv,

Bugungi kunga kelib, dunyo miqyosida ma'lum tashxisga ega bolalar soni yildan yilga ortib bormoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra taxminan 450 million insonda psixik va jismoniy rivojlanishda buzilishlar mavjudligi aniqlangan. Bu yer yuzidagi aholining 1\10 qismini tashkil etadi.

Bundaylar qatoriga: intellektual rivojlanishida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (aqli zaif), eshitish sezgisida buzilishlari mavjud insonlar (kar, zaif eshituvchi, orttirilgan kar insonlar) nutqida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (logopadlar). Muhtaram yurtboshimiz tomonidan imkoniyati cheklangan bolalar uchun katta imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda.

Jumladan, 13-oktabr 2020-yilda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4860 son qarori qabul qilindi. Bu hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlarini milliy bazasida e'lon qilingan va 2020-yil 14-oktabrdan kuchga kirgan¹⁰.

Bunday bolalar uchun ijtimoiy moslashuv, o'zaro kommunikatsiya va emotsional rivojlanish jarayonlari odatda kechikadi yoki qiyinlashadi. Yevropa olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlariga ko'ra alohida ta'lim ehtiyoji mavjud bolalar bilan ishlash jarayonida nafaqat defektologik, logopedik balki musiqa va art terapiyasining o'zni beqiyosdir.

Musiqa terapiya atamasi yunon-latin tilidan kelib chiqqan va tarjimada "musiqa bilan davolash" degan ma'noni anglatadi. „Musiqa terapiya“ tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Olimlarning katta qismi musiqa terapiyasini psixoterapiyaning yordamchi vositasi, bemorlarni murakkab terapevtik usullardan foydalanishga maxsus tayyorlash vositasi deb bilishadi. Musiqa terapiyasi, uning ijtimoiy va psixologik ta'siri orqali, bu bolalarning rivojlanishiga sezilarli yordam bera oladi¹¹.

Aqlan zaif bolalar asosan intellektual rivojlanishdagi kechikishlar yoki qiyinchiliklar tufayli o'zlarini jamiyatda to'liq ifodalashda muammolarga duch keladilar. Ularda ko'pincha: o'z his-tuyg'ularini ifodalashga, ijtimoiy muloqotda tortinchoqlik, atrof-muhitga reaksiya qilmaslik holatlari kuzatiladi. Musiqa terapiyasi o'z ichiga musiqaning terapevtik xususiyatlarini qo'llashni oladi. Bu jarayonda musiqaning ritmik, melodik va garmonik ta'siri orqali, bolalar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va muloqot qilishda yordam

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi 1-ilova

¹¹ O.A.Vorojsova. "Muzika igra v detskoy psixoterapi-Moskva 2004.

olishadi. Musiqa terapiyasi orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Musiqa terapiyasi bolalar o'rtasida jamoaviy ishni, hamkorlikni va ijtimoiy muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Musiqiy o'yinlar, guruh dasturlari va interaktiv musiqiy mashqlar bolalarning o'zaro muloqotini yaxshilaydi, ularning o'zini ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

Musiqa terapiyasining xususiyatlari va metodlari

- ritmik mashqlar
- vokal terapiya
- instrumental musiqaning qo'llanilishi
- neyrogimnastika mashqlari

Har bir usul bolalarning turli ijtimoiy, emotsional va kognitiv ehtiyojlariga mos ravishda qo'llanilishi mumkin. Musiqa terapiyasi bolalarga o'z his-tuyg'ularini so'zlar bilan ifodalashda qiyinchiliklar bo'lsa ham, musiqaning vositasi orqali o'zlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratadi. Musiqa terapiyasining guruh mashqlari bolalar orasida ijtimoiy aloqalarni hamda kommunikatsiya jarayonini mustahkamlashga yordam beradi, bu esa ularning jamiyatga integratsiyasini osonlashtiradi. Musiqa terapiyasi orqali bolalar emotsional barqarorlikni rivojlantiradilar, chunki musiqaning ritmik va tonal jihatlariga ularga stressni kamaytirish va xotirjamlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Musiqa terapiyasining metodik yondashuvlari va ularning natijalari

Individuallik va guruh yondashuvlari musiqa terapiyasida qo'llaniladi. Individuallikda bolaga individual e'tibor qaratilgan holda unga musiqa sadolari ostida ma'lum mashg'ulotlarni olib borish, cholg'u asbobi yordamida barmoqlarning harakati nafaqat miya yarim sharlarining ishlashiga, balki, o'qituvchi bilan do'stona muloqot o'rnatishga yordam beradi. Frontal mashg'ulotlarda esa bolalar orasida o'zaro aloqalar va hamkorlik rivojlantiriladi.

Musiqa va harakat terapiyasining kombinatsiyasi bolalarga nafaqat hissiyotlarini ifodalash, balki ularning jismoniy faolligini ham oshiradi. Bu usul bolalarning motor ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lishi mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida musiqa terapiyasi ularga nafaqat emotsional barqarorlikni ta'minlash, balki ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ham katta yordam beradi. Musiqa terapiyasining ritmik, melodik va vokal ta'siri orqali bolalar o'zaro aloqalarni o'rganadilar, muloqotda ishtirok etadilar va o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar. Shuningdek, musiqa terapiyasining metodik yondashuvlari har bir bolaning ehtiyojiga mos keladigan individual yondashuvlarni taqdim etadi. Shu tariqa, musiqa terapiyasi imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuviga katta ta'sir ko'rsatib, ularning jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.Yamvlix "Pifagor hayoti" 2016.
2. V.I.Petrushin. "Musiqa psixologiyasi" 1997.

3. E.Nazaikinskiy. "Musiqiy idrok psixologiyasi" 1972.
4. B.Teplov. "Musiqiy qobilyatlar psixologiyasi".
5. E.Kurt. "Musiqqa psixologiyasi".